NEOLOGIZMLAR VA ULARNING O’ZBEK TILIDA PAYDO BO’LISH TENDENSIYALARI

Nodirbekova Burobiya Nodirbek qizi
Andijon davlat chet tillari instituti Xorijiy filologiya
va turizm fakulteti Yapon tili filologiyasi yo’nalishi 101-gurh talabasi

Annotatsiya : Ushbu maqolada o‘zbek tilida neologizmlarning paydo bo‘lish tendensiyalari, ularning tasnifi va yasalish usullari, shuningdek, tilshunos olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilinadi. Bundan tashqari, neologizm atamasining mohiyati va uning talqiniga oid turli nazariyalar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: neologizm, termin ,neofrezma, tendensiya , neosemema , neoleksema, til taraqqiyoti , leksik boylik .

Аннотация: В данной статье рассматриваются тенденции возникновения неологизмов в узбекском языке, их классификация и способы образования, а также исследования, проведённые учёными-лингвистами. Кроме того, освещаются сущность термина «неологизм» и различные теории, связанные с его интерпретацией.

Ключевые слова: Неологизм, термин, неофразема, тенденция, неосемема, неолексема, развитие языка, лексическое богатство.

.

Annotation: This article examines the trends in the emergence of neologisms in the Uzbek language, their classification and formation methods, as well as research conducted by linguists. Furthermore, it discusses the concept of neologism and various theories regarding its interpretation.

Keywords: Neologism, term, neologism of phraseological type (neophraseme), tendency, neosememe, neol exeme (neolexeme), language development, lexical richness.

Til - doimiy rivojlanish va o’zgarishda bo’ladi.Shu bilan birga uning leksikasi ya’ni tilning lug’at tarkibi ham turli vaqtlarda yangilanib turadi.Mustaqillik yillaridan keyin O’zbekistonda globalllashuv jarayoni yuz bera boshladi. Texnologik kashfiyotlar , internet tarmoqlari va ijtimoiy – siyosiy o’zgarishlar ta’sirida o’zbek tiliga ingliz tilidan ko’plab yangi so’zlar kirib keldi

Tilda yangi paydo bo’lgan (chet tillaridan kirgan) jamiyat taraqqiyoti , hayotning talab ehtiyoji , yoki mavjud leksik birlikka yangi ma’no yuklagan so’z va so’z birikmalari neologism (yun. neos – yangi , logos – so’z) deb ataladi .

Neologizmlar tilning jonli va doimiy rivojlanib boruvchi tabiatini aks ettiradi.

Lingvistlar fikricha ,har qanday so’z dastlab neologizm sifatida paydo bo’ladi .

Vaqt o’tishi bilan u keng qo’llanila boshlasa , til lug’atining doimiy qismiga aylanadi va neologizm maqomini yo’qotadi , ya’ni faol so’zlar qatoriga o’tadi.

Masalan , o’zbek tili uchun bir qancha yil davomida yangi hisoblangan : marketing onlayn , bloger, webinar , reels , strim, kontent .

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Neologizmlarga oid taqdiqqotlarga nazar tashlaydigan bo’lsak , turlicha qarash va ta’riflarni uchratamiz .O’zbek tilida neologizm hali maxsus o’rganilmagan bo’lsa-da , E. Begmatov yangi so’zlar va ularning paydo bo’lish davriga ko’ra turlari, neologizmlarning yasalish usullari haqida muhim nazariy ma’lumotlar keltirilgan . Sh . Rahmatullayev neologizmlarning ham lug’aviy birliklar , ham grammatik hodisalr doirasida ikki turini :

1)Lug’aviy neologism va

2)Grammatik neologizmni farqlaydi .

Shuningdek , yangi qatlam so’zlarining paydo bo’lishi sabablari va yo’llarini izohlab o’tadi . Qolaversa , neologizmlarning tasnifi ham , ushbu sohada muhim hisoblanadi . Ular 2 turga bo’linadi :

1.Lug’aviy neologizmlar – bu guruhga yangi yaratilgan so’zlar kiradi. Ular til tizimida ilgari mavjud bo’lmagan va yangi tushunchalarni ifodalash uchun yaratilgan so’zlardir. Masalan , “brending”, “startap”, “kiberxavfsizlik” kabi so’zlar o’zbek tilida nisbatan yangi hisoblanadi.

2.Semantik neologizmlar – bu turdagi neologizmlar allaqachon mavjud bo’lgan so’zlarning yangi ma’no kasb etishi natijasida yuzga keladi. Masalan, tarmoq so’zi ilgari faqat an’anaviy bog’liq tuzilmalarni anglatgan bo’lsa, hozirda internet tarmog’i ma’nosida ham ishlatiladi. Yuqorida ta’kidlab o’tilganidek , dastlabki yangi so’zlar lug’ati o’zlashma so’zlardan iborat bo’lgan . O . Usmonovaning “Internatsional so’zlar lug’ati ” ,Sh . Hamidov va O. Usmonovalarning “ O’zbek tili leksikasi tarixidan materiallar” (XIX asrning oxiri - XX asrning boshlari) ham o’zbek tilida neologizmlar leksikografiyasining dastlabki tadqiqiotlaridandir . S. Mo’minov , S . Toshaliyeva va O . To’xtasinovalarning dissertatsiyalarida neologism va okkazionalizm farqlari haqida qisqacha to’xtalib o’tadi.Shuningdek, strukturaviy nazariya tarafdorlarining fikricha , faqat aniq tuzilish va rasmiy yangilikga ega bo’lgan so’zlargina neologizmlar qatoriga kiritish mumkin . Aniq tarixiy nazariya bo’yicha neologizm uchta parametr : til maydoni , vaqt til va birligining yangilik turiga ega bo’lishi kerak . Sh . Rahmatullayev til , inson va nutq munosabatini izohlaydi : “ Lison bilan nutq o’zaro dixotomiya hosil etadi , lekin zidlanuvchi hodisalar emas , balki asos va hosila munosabatidagi hodisalar . Til hodisasi dastlab nutqda hosil bo’ladi , takror –takror ishlatilishi natijasida miyaning til xotirasi qismida bu hodisaning ramzi shakllanadi , keyinchalik ana shu shakldan nusxa olib , nutqiy birlik hosil qilinadi ” . So’ngra , lisonda ramz sifatida muxrlanib , zamonaviy qatlamdan joy olganda ham ma’lum vaqt yangi leksema sifatida yangilik maqomini saqlab turadi . Bu vaziyatdagi yangi so’zlarni lisoniy neologizmlar sifatida baholashimiz mumkin .Masalan , izohli lug’atlarimizdan o’rin egallagan brend , blog , spiker, inauguratsiya kabi so’zlarni ma’lum darajada yangilik maqomida deyishimiz mumkin . Mana shu bosqichda neoleksema , neosemema va neofrzema shaklida guruhlasak maqsadga muvofiq bo’ladi . Batafsilroq izohlaydigan bo’lsak, neoleksema - yangi so’z shakllari , neosemema – mavjud leksemaning yangi ma’nolari ; neofrazema – yangi birikmalar . Neologizm bilan bir qatorda yangi so’z neoleksema (innovatsion leksika) , neonim atamalari ham qo’llaniladi . Va bu yerda eng maqbuli neogolizm atamasi . Yangi so’z deganda keng qamrovli tushunchaga ega bo’lamiz . Uning tarkibiga neologizm ham , dialektlar ham kirishi mumkin . Neoleksema – bu yuqorida keltirilgandek neologizmning bir qismi . bugungi kunda barcha jabhalardagi yangiliklar yangi jarayonlarga nisbatan innovatsiya so’zi qo’llanilmoqda . Shu sababli bu shaklni ham neologizmga variantdosh sifatida berish o’zini oqlamaydi . Neonimlar bu yangi terminlar bo’lib terminologiyada o’rganiladi . Tendensiyalarga kelsak , asosiy tendensiyalar hozirgi bosqichda o’zbek tilida neologizmlarning shakllanishi quyidagilar bilan harakterlanadi . Influencer , chatbot , layfhak , startap kabi so’zlar xorijiy tillardan, xususan , ingliz tilidan o’zlashishning faollashuvi, neologizmlarning sezilarli qismi (70 – 80 foizi) ingliz tilidan bevosita yoki moslashtirilgan holda kirib kelmoqda . Ko’p hollarda bu so’zlar o’zbek tilining morfologik tizimiga moslashtiriladi : kontentchi , bloklash, like qilish , trendda bo’lish.Tilning ichki imkoniyatlaridan

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

foydalanish , affiksatsiya (-lash , - chi, -lik , -tir) so’z qo’shish va qisqartma yasash orqali milliy asosdagi neologizmlar yaratilmoqda.Masalan : raqamlashtirish , axborotlashuv , masofaviy ta’lim , kiberxavfsizlik , elektron hukumat , sun’iy intellekt. Rasmiy nutq va til siyosatda anashu ichki yasama shakllar ko’proq qo’llaniladi . Internentagi aloqa ilovalari Telegramm ,Instagramm , You Tube va boshqa platformalar eng yangi neologizmlarning faol paydo bo’lish va tarqalish muhitiga aylangan.Yoshlar nutqida gibrid shakllar ya’ni chatishtirib gapirish keng tarqalgan (chet so’z + o’zbekcha qo’shimcha yoki fe’l).Tadqiqodlarga ko’ra , ko’p neologizmlar dastlab raqamli hududda paydo bo’ladi , keyinchalik ommaviy axborot vositalari va rasmiy nutqqa o’tadi .

Neologizm davlatlarda rivojlanish darajasi yuqorilashgan sari turli vaqtlarda yuz beradi ya’ni xorijiy mamlakatlar bilan qanchalik ko’p aloqa qilinsa shunga mos tarzda yangi terminlarning tilimizga kirib kelish jarayoni kuchayadi . Yana shiddat bilan rivojlanayotgan ilm-fan, texnika taraqqiyoti ham yangi so’zlarni paydo qiladi. Ularni ilmiy asosda o’rganish va tilga to’g’ri joriy etish o’zbek tilining rivojlanishiga xizmat qiladi. Uni zamonaviy taraqqiyot usullaridan foydalangan holda neologizmlarni chuqur o’rganish va ularni o’z tizimiga moslashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Qolaversa , o’zbek tilshunosligida neologizmning o’rganilishi dastlabki bosqichda, shu sababdan uning turli jihatlardan o’rganilishi katta mehnat va izlanishlar talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati (References)

1. Begmatov E. O‘zbek tilining leksik qatlamlari taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 2007.
2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (va uning boshqa leksikografik tadqiqotlari) / Til va adabiyot ta’limi jurnali materiallari. – Toshkent.
3. Usmonova O. Internatsional so‘zlar lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005.
4. Hamidov Sh., Usmonova O. O‘zbek tili leksikasi tarixidan materiallar (XIX asrning oxiri – XX asrning boshlari). – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2012.
5. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. (Leksikologiya va so‘z yasalishi boblari) – Toshkent: Akademnashr, 2013.
6. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
7. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
8. Mamatov A. O‘zbek tilida leksik va frazeologik birliklarning shakllanishi va taraqqiyoti. – Toshkent: Akademnashr, 2019.
9. To‘xtasinov O. O‘zbek tilida yangi so‘zlar va ularning uslubiy xususiyatlari. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2010.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.